



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

“HALOLLIK TO'GARAKLARI”
O'QUV DASTURI
(Umumta'lim muassasalarining
1-11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan)

Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, topshiriqlar va strategik qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, u tizimli va kompleks yondashuvga asoslanadi. Xususan, dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 30-martdagi 33/1-907-sonli hamda 7-apreldagi 33/2-90-sonli topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2026-yil 13-martdagi 06-13/971-sonli ko'rsatmalari asosida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mazkur dastur Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2026-yil 10-martdagi 32-sonli bayonnomasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 9-apreldagi 03-76-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan 2026-yilga mo'ljallangan harakatlar rejasida belgilangan ustuvor vazifalar va chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib shakllantirildi.

Dasturda belgilangan vazifalar Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini erta bosqichdan shakllantirish, halollik, adolat va shaffoflik tamoyillarini ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish, o'quvchilar ongida korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni qaror toptirishga qaratilgan. Shu bilan birga, u o'quvchilar o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur o'quv dasturi yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan kalendar-jadvalga muvofiq ravishda, belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, tizimli va sifatli amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Tuzuvchi:

Taqrizchilar:

KIRISH

Mazkur “Halollik to‘garaklari” o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish, yosh avlod ongida halollik, adolat va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan ustuvor davlat siyosati yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan. Xususan, dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 30-martdagi 33/1-907-sonli hamda 7-apreldagi 33/2-90-sonli topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2026-yil 13-martdagi 06-13/971-sonli ko‘rsatmalari, shuningdek Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2026-yil 10-martdagi 32-sonli bayonnomasi hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2026-yil 9-apreldagi 03-76-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan 2026-yilga mo‘ljallangan harakatlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Dastur Maktabgacha va maktab ta‘limi tizimida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni tizimli, uzviy va samarali amalga oshirishga xizmat qilib, kalendar-jadval asosida bosqichma-bosqich joriy etilishi nazarda tutiladi. Uning asosiy maqsadi – umumta‘lim muassasalari o‘quvchilari, pedagog xodimlari hamda ta‘lim jarayoni ishtirokchilarida halollik madaniyatini shakllantirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish va huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdan iborat.

Mazkur “Halollik to‘garaklari” dasturi umumta‘lim maktablarining 1-11-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchilarning yosh, psixologik va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda 1-4-sinflar, 5-8-sinflar hamda 9-11-sinflar kesimida alohida mavzular tizimi shakllantirilgan. Har bir bosqichda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga qaratilgan mazmun va metodik yondashuvlar tanlangan.

Dastur doirasida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari direktorlari, ularning o‘rinbosarlari hamda pedagog xodimlarning “Yoshlarda halollikni shakllantirish”, “Halollik darslarini tashkil etish metodikasi”, “Korrupsiyaning oldini olishda ta‘limning o‘rni” kabi yo‘nalishlarda kasbiy kompetentligini oshirish, huquqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, dasturda boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarga halollik, to‘g‘riso‘zlik, adolat, vijdonlilik, mas‘uliyat va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni singdirish didaktik o‘yinlar, interaktiv mashg‘ulotlar, suhbatlar, muammoli vaziyatlar tahlili, rolli o‘yinlar va hayotiy misollar asosida amalga oshiriladi. Yuqori sinflarda esa mazkur tushunchalar chuqurlashtirilib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, huquqiy savodxonlik hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, dastur “Kelajak soatlari” va boshqa tarbiyaviy tadbirlar bilan uzviy integratsiya qilinib, o‘quvchilarda “halollik vaktsinasi”ni shakllantirish, ya‘ni halollikni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilish, kundalik hayotda unga amal qilish, ijtimoiy muhitda esa uni targ‘ib qilish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur dastur ta'lim tizimida sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, yoshlarni halol, mas'uliyatli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalash, jamiyatda korrupsiyaga qarshi barqaror immunitetni rivojlantirishning muhim pedagogik va metodik asosini tashkil etadi.

OFJ6108

NRG2292

NRG2292

NRG2292

NRG2292

OFJ6108

NRG2292

I. Umumiy qoidalar

Mazkur ish dasturi umumta'lim muassasalarida "Halollik to'garagi" faoliyatini samarali tashkil etish, o'quvchilarda halollik madaniyatini shakllantirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik faoliyat mazmunini belgilaydi.

Dastur kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol metodlar hamda tarbiyaviy faoliyatning uzviylik tamoyillariga asoslanadi.

II. Dastur maqsadi va vazifalari

O'quv dasturining maqsadi:

Mazkur "Halollik to'garaklari" o'quv dasturining asosiy maqsadi – umumta'lim muassasalarining 111-sinf o'quvchilarida halollik, adolat, vijdonlilik, mas'uliyat, xolislik va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularni shaxsiy hayotiy qadriyat darajasiga olib chiqishdan iborat.

Dastur o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda jamiyatda halol yashash va faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga bo'lgan ongli ehtiyojni shakllantirish, shuningdek, kundalik hayotda halollik tamoyillariga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quv dasturining vazifalari:

o'quvchilarda yosh xususiyatlaridan kelib chiqib halollik, adolatlilik, tenglik, xolislik, to'g'riso'zlik va mas'uliyat kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish;

o'quvchilarda korrupsiyaning mohiyati, uning jamiyat va inson hayotiga salbiy ta'siri haqida tushunchalar hosil qilish hamda unga nisbatan murosasiz munosabatni rivojlantirish;

o'quvchilarda kundalik hayotda halol xulq-atvorni namoyon etish, sovg'a berish va olish madaniyatini to'g'ri anglash, manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlarga ongli yondashuvni shakllantirish;

1-4, 5-8 va 9-11-sinflar kesimida ishlab chiqilgan mavzular asosida o'quvchilarning huquqiy bilimlarini kengaytirish, ularni ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash;

o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda adolatli yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirish;

interaktiv metodlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va hayotiy vaziyatlar asosida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali halollik tamoyillarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish;

o'quvchilarda halollikni shaxsiy hayotiy mezon sifatida qabul qilish, uni kundalik faoliyatida qo'llash va ijtimoiy muhitda targ'ib etish ko'nikmalarini shakllantirish.

IV. O'quv dasturi hajmi

Mazkur "Halollik to'garaklari" o'quv dasturi umumta'lim muassasalarining 1-11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda 1-4-sinflar, 5-8-sinflar hamda 9-11-sinflar kesimida ishlab chiqilgan.

Dastur har bir sinf bosqichi uchun alohida tuzilgan bo'lib, har bir kesimda 34 ta mavzuni o'z ichiga oladi hamda jami 34 soatga mo'ljallangan. Mazkur mavzular o'quvchilarda halollik, adolat va korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirilgan.

Shu asosda dastur umumiy o'quv yili davomida izchil va tizimli ravishda amalga oshirilib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

V. "HALOLLIK TO'GARAKLARI" O'QUV DASTURI BO'YICHA O'QUVCHILARNING TAYYORGARLIK DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Mazkur o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'quvchi quyidagilarni bilishi zarur:

halollik, adolat, vijdonlilik, xolislik, mas'uliyat kabi ijtimoiy-axloqiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini;

korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va jamiyat hamda shaxs rivojiga salbiy ta'sirini;

korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari va yo'nalishlarini; ta'lim muhitida halollikni ta'minlash va korrupsiyaning oldini olishga oid asosiy tushunchalarni.

Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

kundalik hayotda halollik tamoyillariga amal qilish va ongli ravishda to'g'ri qaror qabul qilish;

muammoli vaziyatlarda adolatli, xolis va vijdonli yondashuvni tanlay olish; korrupsiyaga oid holatlarni anglash, ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish;

ijtimoiy muhitda faol ishtirok etish hamda halollik g'oyalarini targ'ib qilish; o'z xatti-harakatlarini halollik mezonlari asosida baholay va tahlil qila olish.

Quyidagi malakalarni egallagan bo'lishi shart:

halollik va adolatga oid masalalar yuzasidan o'z fikrini erkin va asosli ifoda eta olish;

jamoada ishlash jarayonida to'g'riso'zlik, mas'uliyat va adolat tamoyillariga amal qilish;

ijtimoiy va ta'limiy muammolarga halollik mezonlari asosida yechim taklif qila olish;

halollikni targ'ib etishga qaratilgan tashabbuslarda faol ishtirok etish;
o'z bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish.

Quyidagi kompetensiyalarni egallagan bo'lishi shart:

huquqiy savodxonlikka ega bo'lish, o'z huquq va majburiyatlarini anglay olish;

ijtimoiy jarayonlarga nisbatan ongli va faol fuqarolik munosabatini bildira olish;

halollik va adolatga asoslangan shaxsiy pozitsiyani shakllantirish va uni himoya qila olish;

zamonaviy axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda bilimlarni mustaqil o'zlashtirish;

jamiyatda halollik muhitini mustahkamlashga o'z hissasini qo'sha olish.

Mazkur talablar o'quvchilarda halollikni nafaqat nazariy tushuncha sifatida, balki kundalik hayotda amal qilinadigan muhim qadriyat sifatida shakllantirishga, ularni ijtimoiy faol, mas'uliyatli va ongli shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

VI. "Halollik to'garaklari"

o'quv dasturining 1-4-sinflarga mo'ljallangan

o'quv-mavzu rejasi

T/r	Mavzular nomi	Soat	O'tkazilish vaqti
1	Halollik nima?		
2	Rostgo'ylik va to'g'ri so'zlash odobi		
3	Halol bola qanday bo'ladi?		
4	Yolg'onning oqibatlarini		
5	O'zimizniki va boshqalarniki		
6	Halollik va rostgo'ylik		
7	Boshqalarning mulkiga hurmat		
8	Navbat kutish va tartib-intizom		
9	O'yinlarda adolatli bo'lish		
10	Halollik va adolat		
11	Do'stlikda sadoqat		
12	Halollik va do'stlik		
13	Va'daga vafo qilish		
14	Ishonchli munosabatlar qurish		
15	Halollik va ishonch		
16	O'z xatosini tan olish madaniyati		
17	Vijdon va ichki nazorat		
18	Halollik va vijdon		
19	Mehnatsevarlik va javobgarlik		
20	Halol mehnat qadri		

21	Sinfdagi ijobiy muhit		
22	Halollik va jamoa munosabatlari		
23	Jamoda hamkorlik		
24	O'qishda halollik madaniyati		
25	To'g'ri qaror qabul qilish		
26	Halollik va qaror qabul qilish		
27	Tenglik va adolat tamoyillari		
28	Halollik va tenglik		
29	Halollik va mas'uliyat		
30	Halollik va insoniy fazilatlar		
31	Halollik va ijtimoiy hayot		
32	Yetakchilik fazilatlar		
33	Halollik va liderlik		
34	Halollik – hayotiy qadriyat		

“HALOLLIK TO‘GARAKLARI”

O‘QUV DASTURI

1-MAVZU. Halollik nima?

Mazkur mashg‘ulotda o‘quvchilarga halollik tushunchasi sodda, hayotiy va tushunarli misollar orqali izohlanadi. Halollik – bu insonning o‘z xatti-harakatlarida to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, adolat va poklikka amal qilishi ekanligi tushuntiriladi. O‘quvchilarga halollik faqatgina yolg‘on gapirmaslik bilan cheklanmasligi, balki boshqalarning haqqiga tegmaslik, berilgan vazifani mas‘uliyat bilan bajarish, o‘ziga va boshqalarga nisbatan vijdonan yondashish kabi ko‘plab xulqiy jihatlarni o‘z ichiga olishi yoritiladi.

Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar kundalik hayotda uchraydigan oddiy vaziyatlar orqali halol va nohalol xatti-harakatlarni farqlashni o‘rganadilar. Ularda halollikni shaxsiy fazilat sifatida qabul qilishga dastlabki asos shakllantiriladi.

Texnologiyalar: ko‘rgazmali ma‘ruza, savol-javob, muammoli vaziyat, hayotiy misollar tahlili

2-MAVZU. Rostgo‘ylik va to‘g‘ri so‘zlash odobi

Mazkur mavzuda o‘quvchilarga rostgo‘ylik tushunchasi, uning insoniy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati tushuntiriladi. To‘g‘ri so‘zlash odobi – bu faqat haqiqatni aytish emas, balki uni hurmat va madaniyat bilan ifodalash ekanligi ochib beriladi.

O‘quvchilar o‘z fikrini ochiq, aniq va odob doirasida bayon etish, boshqalarning fikrini hurmat bilan tinglash ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, yolg‘on gapirishning inson obro‘sigacha salbiy ta‘siri misollar orqali tahlil qilinadi.

Texnologiyalar: suhbat, aqliy hujum, rolli o'yin, nutqiy mashqlar

3-MAVZU. Halol bola qanday bo'ladi?

Ushbu mashg'ulotda halol bolaning xulq-atvori, uning ijobiy fazilatlari va kundalik hayotdagi namoyon bo'lishi keng yoritiladi. Halol bola – rostgo'y, mas'uliyatli, boshqalarga zarar yetkazmaydigan, o'z vazifalarini vijdonan bajaradigan shaxs ekanligi tushuntiriladi.

O'quvchilar ideal xulq modeli asosida o'z xatti-harakatlarini baholashni o'rganadilar. Mashg'ulot davomida ularda ijobiy odatlarni shakllantirishga motivatsiya paydo qilinadi.

Texnologiyalar: rolli o'yin, muhokama, refleksiya, kuzatish

4-MAVZU. Yolg'onning oqibatlari

Mazkur mavzuda yolg'onning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi salbiy oqibatlari chuqurroq tahlil qilinadi. Yolg'on ishonchni yo'qotishi, munosabatlarni buzishi va inson obro'siga putur yetkazishi haqida misollar keltiriladi.

O'quvchilar turli vaziyatlarni tahlil qilish orqali yolg'on va rostlik o'rtasidagi farqni anglaydilar. Ularda rostgo'ylikni tanlashga ichki ehtiyoj shakllanadi.

Texnologiyalar: muammoli vaziyat, кейс-метод, tahlil

5-MAVZU. O'zinniki va boshqalarniki

Bu mavzuda o'quvchilarga shaxsiy va umumiy mulk tushunchalari tushuntiriladi. Boshqalarning narsasiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ruxsatsiz foydalanmaslik zarurligi yoritiladi.

O'quvchilar o'zlariga tegishli bo'lmagan narsalarni olish noto'g'ri ekanligini anglaydilar. Shu orqali ularda mulkka nisbatan mas'uliyatli yondashuv shakllanadi.

Texnologiyalar: ko'rgazmali metod, muhokama, vaziyatli topshiriq

6-MAVZU. Halollik va rostgo'ylik

Halollik va rostgo'ylikning o'zaro bog'liqligi, ularning bir-birini to'ldiruvchi fazilatlar ekanligi tushuntiriladi. Halollikning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida rostgo'ylik alohida yoritiladi.

O'quvchilar turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish orqali halollikni namoyon etish mumkinligini tushunadilar.

Texnologiyalar: aqliy hujum, tahlil, muammoli vaziyat

7-MAVZU. Boshqalarning mulkiga hurmat

Mazkur mashg'ulotda mulkka ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, boshqalarning haq-huquqini hurmat qilish masalalari yoritiladi.

O'quvchilarga har qanday buyum ortida mehnat yotgani tushuntiriladi. Shu asosda ularda boshqalarning mulkiga nisbatan ehtiyotkorlik va hurmat hissi shakllantiriladi.

Texnologiyalar: muhokama, rolli o'yin, vaziyatli tahlil

8-MAVZU. Navbat kutish va tartib-intizom

Mazkur mavzuda jamoada o'zini tutish, tartib-intizomga rioya qilish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish masalalari yoritiladi.

O'quvchilar navbat kutish, qoidalarga amal qilish orqali jamiyatda tartib saqlanishini anglaydilar. Bu ularda ijtimoiy madaniyatni shakllantiradi.

Texnologiyalar: amaliy mashq, o'yinli metod, kuzatish

9-MAVZU. O'yinlarda adolatli bo'lish

O'yin jarayonida qoidalarga amal qilish, halol raqobat va adolatli munosabat haqida tushuncha beriladi.

O'quvchilar g'alaba va mag'lubiyatni to'g'ri qabul qilishni, boshqalarga nisbatan adolatli bo'lishni o'rganadilar.

Texnologiyalar: didaktik o'yin, refleksiya, muhokama

10-MAVZU. Halollik va adolat

Halollik va adolat tushunchalarining o'zaro bog'liqligi keng yoritiladi. Adolatli bo'lish – boshqalarga teng munosabatda bo'lish, haqqoniy qaror qabul qilish ekanligi tushuntiriladi.

O'quvchilar turli vaziyatlarni tahlil qilish orqali adolatli va halol yo'lni tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Texnologiyalar: muammoli vaziyat, bahs-munozara, tahlil

11-MAVZU. Do'stlikda sadoqat

Mazkur mashg'ulotda do'stlik tushunchasi, uning asosiy mezonlari – sadoqat, hurmat va ishonch haqida tushuncha beriladi. O'quvchilarga do'stlikdagi to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlar misollar orqali ko'rsatib beriladi. Sadoqatli bo'lish, do'stga yordam berish va uni qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Texnologiyalar: rolli o'yin, suhbat, vaziyatli tahlil

12-MAVZU. Halollik va do'stlik

Halollikning do'stlik munosabatlaridagi o'rni yoritiladi. Do'stlar o'rtasida rostgo'ylik, ishonch va samimiylikni saqlash zarurligi tushuntiriladi. O'quvchilar do'stlikdagi muammoli vaziyatlarni hal qilishni o'rganadilar.

Texnologiyalar: muammoli vaziyat, rolli o'yin

13-MAVZU. Va'daga vafo qilish

Va'daning mazmuni, uni bajarishning ahamiyati tushuntiriladi. O'quvchilar o'z so'ziga sodiq bo'lish va boshqalarning ishonchini oqlash zarurligini anglaydilar.
Texnologiyalar: muhokama, refleksiya

14-MAVZU. Ishonchli munosabatlar qurish

Ishonchli munosabatlarning asoslari – hurmat, samimiylik va mas'uliyat haqida tushuncha beriladi. O'quvchilar boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilishni o'rganadilar.

Texnologiyalar: suhbat, interfaol metodlar

15-MAVZU. Halollik va ishonch

Halollikning ishonchni shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Ishonch buzilganda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi.
Texnologiyalar: vaziyatli tahlil, keys metodi

16-MAVZU. O'z xatosini tan olish madaniyati

Xatoni tan olish, undan saboq chiqarish va tuzatish ko'nikmalari rivojlantiriladi. O'quvchilar xatodan qo'rqmaslik, balki uni to'g'ri baholashni o'rganadilar.

Texnologiyalar: refleksiya, muhokama

17-MAVZU. Vijdon va ichki nazorat

Vijdon tushunchasi, uning inson xatti-harakatlarini boshqarishdagi o'rni tushuntiriladi. O'quvchilarda o'zini nazorat qilish ko'nikmasi shakllantiriladi.
Texnologiyalar: suhbat, refleksiya

18-MAVZU. Halollik va vijdon

Halollik va vijdon o'rtasidagi bog'liqlik ochib beriladi. O'quvchilar ichki nazorat orqali to'g'ri qaror qabul qilishni o'rganadilar.
Texnologiyalar: muammoli vaziyat, tahlil

19-MAVZU. Mehnatsevarlik va javobgarlik

Mehnatsevarlik, mas'uliyat va intizom tushunchalari tushuntiriladi. O'quvchilar o'z vazifalarini bajarishga ongli yondashishni o'rganadilar.

Texnologiyalar: amaliy mashq, muhokama

20-MAVZU. Halol mehnat qadri

Halol mehnat orqali erishilgan natijaning qadri va ahamiyati yoritiladi. Mehnatga hurmat hissi shakllantiriladi.

Texnologiyalar: misollar, suhbat

21-MAVZU. Sinfdagi ijobiy muhit

Sinf jamoasida sog'lom muhit yaratish, o'zaro hurmat va yordam haqida tushuncha beriladi.

Texnologiyalar: guruhli ish, muhokama

22-MAVZU. Halollik va jamoa munosabatlari

Jamoada halollikning o'rni, o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlash masalalari yoritiladi.

Texnologiyalar: interfaol metodlar, vaziyatli tahlil

23-MAVZU. Jamoada hamkorlik

Hamkorlikda ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va umumiy maqsadga erishish tushunchalari rivojlantiriladi.

Texnologiyalar: guruhli ish, loyiha metodi

24-MAVZU. O'qishda halollik madaniyati

O'quv jarayonida mustaqillik, bilimga mas'uliyatli yondashuv va intizom tushunchalari shakllantiriladi.

Texnologiyalar: Keys metodi, tahlil

25-MAVZU. To'g'ri qaror qabul qilish

Turli vaziyatlarda to'g'ri tanlov qilish, qaror qabul qilishning bosqichlari o'rgatiladi.

Texnologiyalar: muammoli vaziyat, muhokama

26-MAVZU. Halollik va qaror qabul qilish

Halol qaror qabul qilishning ahamiyati, uning oqibatlari yoritiladi.

Texnologiyalar: Keys metodi, tahlil

27-MAVZU. Tenglik va adolat tamoyillari

Barcha insonlarga teng munosabatda bo'lish, adolatli qaror qabul qilish zarurligi tushuntiriladi.

Texnologiyalar: bahs-munozara, tahlil

28-MAVZU. Halollik va tenglik

Halollik orqali tenglik va adolatni ta'minlash masalalari yoritiladi.

Texnologiyalar: muammoli vaziyat

29-MAVZU. Halollik va mas'uliyat

Shaxsiy javobgarlik va halollikning o'zaro bog'liqligi tushuntiriladi.

Texnologiyalar: muhokama, refleksiya

30-MAVZU. Halollik va insoniy fazilatlar

Halollikning boshqa ijobiy fazilatlar bilan uyg'unligi yoritiladi.
Texnologiyalar: suhbat, misollar

31-MAVZU. Halollik va ijtimoiy hayot

Jamiyatda halollikning o'rnini va ahamiyati tushuntiriladi.
Texnologiyalar: ko'rgazmali ma'ruza

32-MAVZU. Yetakchilik fazilatlarini

Yetakchilik tushunchasi, liderning ijobiy sifatlarini va mas'uliyatini yoritiladi.
Texnologiyalar: roli o'yin, muhokama

33-MAVZU. Halollik va liderlik

Halol liderning xususiyatlarini, boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish masalalarini tushuntiriladi.

Texnologiyalar: Keys metodi, roli o'yin

34-MAVZU. Halollik – hayotiy qadriyat

Halollikning inson hayotidagi doimiy va muhim qadriyat sifatidagi o'rnini umumlashtiriladi. O'quvchilar o'z hayotiy pozitsiyasini shakllantiradilar.
Texnologiyalar: refleksiya, umumlashtiruvchi suhbat

VII. "Halollik to'garaklari"

o'quv dasturining 5-9-sinflarga mo'ljallangan

o'quv-mavzu rejasi

T/r	Mavzular nomi	Soat	O'tkazilish vaqti
1	Halollik tushunchasi va uning kundalik hayotdagi ahamiyati		
2	Rostgo'ylik va yolg'onchilik: xulq-atvor tahlili		
3	Begona shaxslardan hadyalarni qabul qilishda ehtiyot bo'lish		
4	Halollik va adolat qoidalari		
5	Oila muhitida halollik		
6	Maktabda halol xulq-atvor		
7	Do'stlik va halollik		
8	Mas'uliyatlilik va halollik		
9	Halollikning jamiyatdagi o'rnini		
10	Qonun va halollik o'rtasidagi bog'liqlik		
11	Akademik halollik asoslari		
12	Halol mehnat tushunchasi		
13	Vijdon va halollik		

14	Halol bo'lishga undovchi omillar		
15	Shaxsiy rivojlanishda halollik		
16	Internet va ijtimoiy tarmoqlarda halollik		
17	Ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyat		
18	Korrupsiya tushunchasi		
19	Korrupsiyaning salbiy oqibatlari		
20	Korrupsiyaga qarshi xulq-atvor		
21	Korrupsiyani oldini oluvchi vositalar		
22	Milliy qadriyatlarda halollik		
23	Umuminsoniy qadriyatlar va halollik		
24	Halol qaror qabul qilish		
25	O'zini nazorat qilish va halollik		
26	Empatiya va halollik		
27	Muloqotda halollik		
28	Adolatli baholash va halollik		
29	Jamoda halollik		
30	Konfliktlarda halollik		
31	Shaxsiy javobgarlik		
32	Ishonch va halollik		
33	Kasb tanlashda halollik		
34	Halollikni baholash va rivojlantirish		

“HALOLLIK TO‘GARAKLARI”

O‘QUV DASTURI

1-MAVZU. Halollik tushunchasi va uning kundalik hayotdagi ahamiyati

Halollik tushunchasini sodda va hayotiy misollar asosida tushuntirish. Rostgo‘ylik, insoflilik va adolatli xulq-atvorning kundalik hayotdagi ko‘rinishlarini ochib berish. Halol va nohalol harakatlarni farqlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: ko‘rgazmali ma‘ruza, savol-javob, muammoli vaziyat

2-MAVZU. Rostgo‘ylik va yolg‘onchilik: xulq-atvor tahlili

Rost va yolg‘on tushunchalarini tahlil qilish. Yolg‘onchilikning psixologik sabablarini va uning salbiy oqibatlarini ochib berish. Rostgo‘ylikning ijobiy natijalarini misollar orqali ko‘rsatish.

Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari: muammoli vaziyat, rolli o‘yin, munozara

3-MAVZU. Begona shaxslardan hadyalarini qabul qilishda ehtiyot bo'lish
Begona shaxslardan sovg'a olishning xavfli jihatlarini tushuntirish. Sovg'alarning ortidagi niyatni anglash, o'zini va boshqalarni himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish. Jamoat joylarida xulq-atvor qoidalariga rioya qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: ko'rgazmali ma'ruza, muammoli vaziyat

4-MAVZU. Halollik va adolat qoidalari
Adolat va halollik tushunchalarining o'zaro bog'liqligini tushuntirish. Tenglik va haqqoniylik prinsiplarini hayotiy vaziyatlar orqali yoritish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: munozara, tahlil, savol-javob

5-MAVZU. Oila muhitida halollik
Oilada ishonch va halollikni shakllantirish omillarini tushuntirish. Ota-ona va farzand o'rtasidagi ochiq va rost muloqotni rivojlantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: suhbat, klaster usuli

6-MAVZU. Maktabda halol xulq-atvor
Maktab qoidalariga rioya qilish, intizom va halollikni shakllantirish. O'quvchining o'z xatti-harakatlariga mas'uliyat bilan yondashishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli vaziyat, rolli o'yin

7-MAVZU. Do'stlik va halollik
Do'stlikda ishonch, rostgo'ylik va sodiqlikning o'rnini tushuntirish. Soxta va haqiqiy do'stlikni farqlash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: munozara, rolli o'yin

8-MAVZU. Mas'uliyatlilik va halollik
Mas'uliyat hissini shakllantirish va uni halollik bilan bog'lash. O'z harakatlari uchun javob berish ko'nikmasini rivojlantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli vaziyat, tahlil

9-MAVZU. Halollikning jamiyatdagi o'rni
Jamiyat rivojida halollikning ahamiyatini tushuntirish. Ishonch va ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishdagi rolini yoritish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: ko'rgazmali ma'ruza, suhbat

10-MAVZU. Qonun va halollik o'rtasidagi bog'liqlik
Qonunlarga rioya qilishning halollik bilan bog'liqligini tushuntirish. Huquqiy ongini shakllantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: savol-javob, muammoli vaziyat

11-MAVZU. Akademik halollik asoslari

Ko'chirmachilik, aldash va plagiatning zararini tushuntirish. Mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: tahlil, munozara

12-MAVZU. Halol mehnat tushunchasi

Halol mehnatning qadri va jamiyatdagi ahamiyatini tushuntirish. Mehnatsevarlikni rivojlantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: suhbat, misollar bilan tushuntirish

13-MAVZU. Vijdon va halollik

Vijdon tushunchasini ochish va uni halollik bilan bog'lash. Ichki nazorat mexanizmini shakllantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: refleksiya, savol-javob

14-MAVZU. Halol bo'lishga undovchi omillar

Motivatsiya, rag'bat va ijtimoiy omillarning halollikka ta'sirini tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: klaster, suhbat

15-MAVZU. Shaxsiy rivojlanishda halollik

Halollikning shaxs kamoloti va o'zini anglashdagi o'rnini tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: refleksiya, muhokama

16-MAVZU. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda halollik

Axborotdan to'g'ri foydalanish, yolg'on ma'lumotlardan saqlanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli vaziyat, tahlil

17-MAVZU. Ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyat

Onlayn muhitda odob, rostgo'ylik va mas'uliyatni tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: munozara, keys-stadi

18-MAVZU. Korrupsiya tushunchasi

Korrupsiya haqida sodda tushuncha berish va uning xavfini tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: ko'rgazmali ma'ruza, suhbat

19-MAVZU. Korrupsiyaning salbiy oqibatlari

Korrupsiyaning jamiyat va shaxs rivojiga zararini misollar orqali tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: tahlil, muammoli vaziyat

20-MAVZU. Korrupsiyaga qarshi xulq-atvor

Halollik asosida korrupsiyaga qarshi turish ko'nikmalarini shakllantirish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: rolli o'yin, munozara

21-MAVZU. Korrupsiyani oldini oluvchi vositalar

Korrupsiyani oldini oluvchi vositalarni tushuntirish. Ijobiy liderlik fazilatlarini shakllantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: munozara, misollar

22-MAVZU. Milliy qadriyatlarda halollik

Milliy an'analarda halollikning o'rnini tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: suhbat, tahlil

23-MAVZU. Umuminsoniy qadriyatlar va halollik

Halollikning global qadriyat sifatidagi ahamiyatini tushuntirish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: munozara

24-MAVZU. Halol qaror qabul qilish

Axloqiy tanlov qilish va to'g'ri qaror qabul qilishni o'rgatish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli vaziyat

25-MAVZU. O'zini nazorat qilish va halollik

O'z xatti-harakatlarini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: refleksiya

26-MAVZU. Empatiya va halollik

Boshqalarni tushunish orqali halol munosabatlarni rivojlantirish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: rolli o'yin

27-MAVZU. Muloqotda halollik

Ochiq va rost muloqot yuritish ko'nikmalarini shakllantirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: suhbat, mashqlar

28-MAVZU. Adolatli baholash va halollik

Baholash jarayonida adolat va halollikni tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muhokama

29-MAVZU. Jamoada halollik

Guruhda ishlashda halollik qoidalarini o'rgatish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: guruhli ish

30-MAVZU. Konfliktlarda halollik

Nizolarni hal qilishda halol yondashuvni o'rgatish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: rolli o'yin

31-MAVZU. Shaxsiy javobgarlik

O'z harakatlari uchun javobgarlikni shakllantirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli vaziyat

32-MAVZU. Ishonch va halollik

Ishonchni shakllantirishda halollikning rolini tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: suhbat

33-MAVZU. Kasb tanlashda halollik

Kelajak kasbida halollikning ahamiyatini tushuntirish. Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muhokama

34-MAVZU. Halollikni baholash va rivojlantirish

Halollikni baholash va uni rivojlantirish usullarini o'rgatish. O'zini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: refleksiya, tahlil

VIII. "Halollik to'garaklari"

o'quv dasturining 9-11-sinflarga mo'ljallangan

o'quv-mavzu rejasi

T/r	Mavzular nomi	Soat	O'tkazilish vaqti
1	Halollik tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati		
2	Halollik – shaxsiy fazilat va hayotiy prinsip sifatida		
3	Adolat va vijdon: axloqiy kategoriyalar tahlili		
4	Halollik va axloqiy qadriyatlar tizimi		
5	Sharq mutafakkirlari qarashlarida halollik va insoniylik talqini		
6	Jadid pedagogikasida halollik va ma'rifatparvarlik		
7	Biz o'z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz		
8	Halollik va to'g'rilik		

9	Halollik va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar		
10	Korrupsiya tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati		
11	Korrupsiyaning jamiyat va taraqqiyotga salbiy ta'siri		
12	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari		
13	O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi siyosat		
14	Xalqaro tajriba: korrupsiyaga qarshi kurash		
15	Halollik va fuqarolik jamiyati institutlari		
16	Shaxsiy pozitsiya va fuqarolik mas'uliyati		
17	Axloqiy tanlov va qaror qabul qilish mexanizmlari		
18	Muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish		
19	Murakkab vaziyatlarda halollikni saqlash strategiyalari		
20	Halollik va shaxsiy mas'uliyat		
21	Halollik va liderlik kompetensiyalari		
22	Halollik muhitini shakllantirish omillari		
23	"Halol maktab" konsepsiyasi va uning modeli		
24	Ijtimoiy loyihalar: halollikni targ'ib etish vositasi sifatida		
25	Halollik targ'ibotida kreativ yondashuvlar		
26	"Halollik haftaligi"ni tashkil etish metodikasi		
27	Media va halollik: axborot madaniyati		
28	Korrupsiyaga oid holatlarda murojaat qilish madaniyati va huquqiy himoya tizimi		
29	Shaxsiy rivojlanish va refleksiya		
30	O'zini baholash va o'z ustida ishlash strategiyalari		

31	Halollik va kasb tanlash madaniyati		
32	Halollik va jamoa mas'uliyati		
33	Ijtimoiy loyihalarni himoya qilish va taqdim etish		
34	Refleksiya, o'z-o'zini baholash va yakuniy xulosa		

1-MAVZU. Halollik tushunchasi va uning ijtimoiy ahamiyati

Mazkur mashg'ulotda halollik tushunchasi falsafiy va ijtimoiy jihatdan keng yoritiladi. Halollikning jamiyatdagi ishonch, barqarorlik va taraqqiyotga ta'siri misollar orqali tushuntiriladi. O'quvchilarda halollikni nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy zarurat sifatida anglash ko'nikmasi shakllantiriladi.

Metodlar: ko'rgazmali ma'ruza, muammoli vaziyat, savol-javob

2-MAVZU. Halollik – shaxsiy fazilat va hayotiy prinsip sifatida

Halollikning inson hayotidagi asosiy yo'naltiruvchi prinsip sifatidagi o'rni ochib beriladi. O'quvchilar halollikning kundalik qarorlar, xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarga qanday ta'sir qilishini anglaydilar.

Metodlar: refleksiya, suhbat

3-MAVZU. Adolat va vijdon: axloqiy kategoriyalar tahlili

Adolat va vijdon tushunchalari chuqur tahlil qilinadi. Ularning inson xulqini boshqaruvchi ichki va tashqi omillar sifatidagi roli tushuntiriladi.

Metodlar: bahs-munozara, tahlil

4-MAVZU. Halollik va axloqiy qadriyatlar tizimi

Halollikning axloqiy qadriyatlar tizimidagi markaziy o'rni yoritiladi. U boshqa fazilatlar – rostgo'ylik, mas'uliyat, adolat bilan bog'liqlikda o'rganiladi.

Metodlar: klaster, muhokama

5-MAVZU. Sharq mutafakkirlari qarashlarida halollik

Sharq mutafakkirlari halollikni komil insonning asosiy sifati sifatida talqin qilganliklari misollar bilan tahlil qilinadi. Ularning g'oyalari zamonaviy hayot bilan bog'lanadi.

Metodlar: matn tahlili, munozara

6-MAVZU. Jadid pedagogikasida halollik va ma'rifatparvarlik

Jadidlarning ta'lim orqali jamiyatni isloh qilish g'oyasi va halollikka asoslangan yondashuvi yoritiladi.

Metodlar: tarixiy tahlil, suhbat

7-MAVZU. Biz o‘z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz

Shaxsiy javobgarlik va ongli xulq tushunchalari rivojlantiriladi. Har bir harakatning oqibati mavjudligi anglatiladi.

Metodlar: muammoli vaziyat, refleksiya

8-MAVZU. Halollik va to‘g‘rilik

Halollik va rostgo‘ylikning uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. O‘quvchilar to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.

Metodlar: aqliy hujum

9-MAVZU. Halollik va qadriyatlar

Halollikning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Metodlar: munozara

10-MAVZU. Korrupsiya tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati

Mazkur mashg‘ulotda “korrupsiya” tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va shakllari o‘quvchilarga sodda, ammo ilmiy asoslangan tarzda tushuntiriladi. Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi, ishonchni yemiruvchi ijtimoiy hodisa ekanligi misollar orqali yoritiladi.

O‘quvchilar kundalik hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlarni ajratish, ularning mohiyatini tushunish va ularga nisbatan to‘g‘ri munosabat bildirish ko‘nikmasini egallaydilar.

Metodlar: ko‘rgazmali ma’ruza, muammoli vaziyat, savol-javob, keys-stadi

11-MAVZU. Korrupsiyaning jamiyat va taraqqiyotga salbiy ta’siri

Ushbu mashg‘ulotda korrupsiyaning iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarga salbiy ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Korrupsiya tufayli adolatsizlik kuchayishi, imkoniyatlar tengsizligi yuzaga kelishi va jamiyatda ishonchsizlik paydo bo‘lishi haqida tushunchalar beriladi.

O‘quvchilar real hayotiy misollar asosida korrupsiyaning oqibatlarini anglab, unga nisbatan muvofiq munosabat shakllantiradilar.

Metodlar: tahlil, bahs-munozara, muammoli vaziyat

12-MAVZU. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari

Mazkur mavzuda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari, qonunlar va normativ hujjatlar haqida tushuncha beriladi. O‘quvchilarga davlat tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar haqida ma’lumot yetkaziladi.

Ular huquqiy ongni rivojlantirish, qonunlarga hurmat bilan qarash va ularga amal qilish zarurligini anglaydilar.

Metodlar: huquqiy tahlil, savol-javob, keys-stadi

13-MAVZU. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi siyosat

Ushbu mashg‘ulotda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosat, islohotlar va strategiyalar yoritiladi. Davlat organlari faoliyati, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash choralari muhokama qilinadi.

O‘quvchilarda davlat siyosatiga nisbatan ongli munosabat va fuqarolik mas‘uliyati shakllantiriladi.

Metodlar: ma‘ruza, muhokama, tahlil

14-MAVZU. Xalqaro tajriba: korrupsiyaga qarshi kurash

Mazkur mavzuda turli davlatlar va xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi o‘rganiladi. Xalqaro standartlar, shaffoflik tamoyillari va ilg‘or amaliyotlar tahlil qilinadi.

O‘quvchilar global muammolarni anglash, turli tajribalarni solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.

Metodlar: taqqoslash, munozara, keys-stadi

15-MAVZU. Halollik va fuqarolik jamiyati institutlari

Fuqarolik jamiyatida halollikning roli, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari yoritiladi.

Metodlar: suhbat

16-MAVZU. Shaxsiy pozitsiya va fuqarolik mas‘uliyati

Faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyat hayotida ishtirok etish zarurligi tushuntiriladi.

Metodlar: munozara

17-MAVZU. Axloqiy tanlov va qaror qabul qilish mexanizmlari

Mazkur mashg‘ulotda axloqiy tanlov tushunchasi, qaror qabul qilish jarayonining bosqichlari va unga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rganiladi. O‘quvchilar turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun tahlil qilish, baholash va tanlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Axloqiy dilemmalar misolida halol va adolatli yo‘lni tanlash muhokama qilinadi.

Metodlar: Keys metodi, muammoli vaziyat, muhokama

18-MAVZU. Muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish

Ushbu mavzuda o‘quvchilar real hayotga yaqin muammoli vaziyatlar asosida qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Har bir qarorning ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilinadi.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni har tomonlama ko‘rib chiqish va mas‘uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Metodlar: vaziyatli tahlil, guruhli ish, bahs-munozara

19-MAVZU. Murakkab vaziyatlarda halollikni saqlash strategiyalari

Mazkur mashg'ulotda qiyin va bosimli vaziyatlarda halollikni saqlash yo'llari o'rganiladi. O'quvchilar tashqi ta'sirlar, bosim yoki manfaatlar to'qnashuvi sharoitida ham to'g'ri yo'lni tanlash strategiyalarini ishlab chiqadilar.

Halollikni saqlashda qat'iyat, prinsipiiallik va ichki ishonchning ahamiyati yoritiladi.

Metodlar: rolli o'yin, muammoli vaziyat, refleksiya

20-MAVZU. Halollik va shaxsiy mas'uliyat

Halollik va javobgarlikning uzviy bog'liqligi chuqur yoritiladi.

Metodlar: refleksiya

21-MAVZU. Halollik va liderlik kompetensiyalari

Halol liderning sifatleri va jamiyatdagi roli tushuntiriladi.

Metodlar: rolli o'yin

22-MAVZU. Halollik muhitini shakllantirish

Halollikka asoslangan ijtimoiy muhit yaratish omillari tahlil qilinadi.

Metodlar: guruhli ish

23-MAVZU. "Halol maktab" konsepsiyasi

Halollik tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratish modeli ishlab chiqiladi.

Metodlar: loyiha metodi

24-MAVZU. Ijtimoiy loyihalar: halollikni targ'ib etish vositasi sifatida

Mazkur mashg'ulotda ijtimoiy loyihalar tushunchasi, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati o'quvchilarga tushuntiriladi. Ijtimoiy loyihalar orqali halollik, adolat va mas'uliyat kabi qadriyatlarini targ'ib etish mumkinligi yoritiladi.

O'quvchilar halollik mavzusida kichik loyihalar ishlab chiqish jarayoni bilan tanishadilar: muammoni aniqlash, maqsad qo'yish, yechim taklif etish va natijani baholash. Shu orqali ular tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Metodlar: loyiha metodi, guruhli ish, muhokama, taqdimot

25-MAVZU. Halollik targ'ibotida kreativ yondashuvlar

Ushbu mashg'ulotda halollik g'oyalarini yoshlar orasida targ'ib qilishda kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi. Plakatlar, videoroliklar, sahna ko'rinishlari, ijtimoiy reklama kabi vositalardan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

O'quvchilar halollik mavzusida ijodiy g'oyalar ishlab chiqadilar, ularni amaliy shaklga keltirish yo'llarini o'rganadilar. Bu jarayon ularning kreativ fikrlash, o'z fikrini ifodalash va ta'sir o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Metodlar: aqliy hujum, kreativ topshiriqlar, guruhli ish, taqdimot

26-MAVZU. “Halollik haftaligi”ni tashkil etish metodikasi

Mazkur mashg‘ulotda ta‘lim muassasasida “Halollik haftaligi”ni tashkil etishning mazmuni va bosqichlari tushuntiriladi. Tadbirni rejalashtirish, faoliyat turlarini tanlash (tanlovlar, uchrashuvlar, aksiyalar), ishtirokchilarni jalb etish va natijalarni baholash jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

O‘quvchilar kichik guruhlarda ishlagan holda “Halollik haftaligi” uchun dastur ishlab chiqadilar. Bu ularda tashkiliy qobiliyat, liderlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Metodlar: loyiha metodi, guruhli rejalashtirish, muhokama, prezentatsiya

27-MAVZU. Media va halollik: axborot madaniyati

Ushbu mashg‘ulotda media makonida halollik, axborotdan to‘g‘ri foydalanish, yolg‘on va manipulyativ ma‘lumotlarni ajratish masalalari yoritiladi. O‘quvchilarga axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va media savodxonlik tushunchalari tushuntiriladi.

O‘quvchilar turli axborot manbalarini tahlil qilish, ishonchli va ishonchsiz ma‘lumotlarni ajratish, ijtimoiy tarmoqlarda mas‘uliyatli xulq ko‘rsatish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Metodlar: media tahlil, muammoli vaziyat, munozara, keys-stadi

28-MAVZU. Korrupsiyaga oid holatlarda murojaat qilish madaniyati va huquqiy himoya tizimi

Mazkur mashg‘ulotda korrupsiyaga oid holatlarda fuqarolarning murojaat qilish huquqi va uning huquqiy asoslari yoritiladi. O‘quvchilarga korrupsion vaziyatlar yuzaga kelganda vahima yoki befarqlik emas, balki qonuniy yo‘l tutish zarurligi tushuntiriladi.

Murojaat qilish madaniyati – bu shaxsning o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish jarayonida qonuniy, asosli va madaniyatli tarzda tegishli organlarga murojaat etishidir. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarga ariza, shikoyat va taklif yozish tartibi, murojaat shakllari (yozma, og‘zaki, elektron) hamda ularni to‘g‘ri rasmiylashtirish qoidalari tushuntiriladi.

Mashg‘ulot davomida quyidagi vakolatli organlar faoliyati haqida ham ma‘lumot beriladi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

Prokuratura organlari;

Ichki ishlar organlari;

Sud tizimi;

Ombudsman (Inson huquqlari bo‘yicha vakil).

Shuningdek, o‘quvchilarga murojaat qilishda quyidagi tamoyillar muhimligi tushuntiriladi:

aniqlik va asoslanganlik;

qonuniylik;

xolislik;

madaniyat va hurmat;

shaxsiy javobgarlik.

Amaliy qismda o'quvchilar turli muammoli vaziyatlar asosida qayerga va qanday murojaat qilishni aniqlaydilar, ariza yozish bo'yicha kichik mashqlar bajaradilar.

Metodlar: muhokama

29-MAVZU. Shaxsiy rivojlanish va refleksiya

Mazkur mashg'ulotda o'quvchilarga shaxsiy rivojlanish tushunchasi, uning asosiy yo'nalishlari va refleksiya jarayonining ahamiyati keng yoritiladi. Refleksiya – bu insonning o'z xatti-harakatlari, fikrlari va qarorlarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim psixologik va pedagogik jarayon ekanligi tushuntiriladi.

Mashg'ulot davomida o'quvchilar o'z hayotiy tajribalari, kundalik faoliyatlari va ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilishga yo'naltiriladi. Ular o'zlarining kuchli va rivojlantirilishi zarur bo'lgan jihatlarini aniqlashni, xatolardan saboq chiqarishni o'rganadilar. Refleksiya orqali halollik, mas'uliyat va vijdon kabi fazilatlarning shakllanishi muhimligi alohida ta'kidlanadi.

O'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar rivojlantiriladi:

o'z faoliyatini mustaqil baholash;

o'z-o'zini nazorat qilish;

xatti-harakatlarining oqibatlarini anglash;

shaxsiy rivojlanish uchun aniq maqsadlar qo'yish.

Metodlar: refleksiya (kundalik yozuvlar, "Men bugun nimani o'rgandim?" usuli), suhbat, muhokama, individual topshiriqlar

30-MAVZU. O'zini baholash va o'z ustida ishlash strategiyalari

Ushbu mashg'ulotda o'quvchilarga o'zini baholash tushunchasi, uning shaxsiy rivojlanishdagi o'rni va o'z ustida ishlash strategiyalari haqida batafsil ma'lumot beriladi. O'zini baholash – bu shaxsning o'z bilim, ko'nikma, xulq-atvor va qadriyatlarini ongli ravishda tahlil qilishi va baholash jarayoni ekanligi tushuntiriladi.

Mashg'ulot davomida o'quvchilar o'zlarini real baholash, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yish va ularga erishish yo'llarini rejalashtirishni o'rganadilar. O'z ustida ishlashning samarali strategiyalari – o'zini nazorat qilish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, ijobiy odatlarni shakllantirish, salbiy odatlarni bartaraf etish kabi jihatlar keng yoritiladi.

Shuningdek, o'quvchilarga halollik asosida o'zini baholash muhimligi tushuntiriladi. Ya'ni, o'z yutuq va kamchiliklarini yashirmasdan, ochiq va vijdonan baholash shaxsiy kamolotning muhim sharti ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Mashg'ulot yakunida o'quvchilar o'zlarining shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqadilar. Bu reja ularning kelajakdagi maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Metodlar: refleksiya, SWOT tahlil (kuchli va zaif tomonlarni aniqlash), individual reja tuzish, muhokama

31-MAVZU. Halollik va kasb tanlash madaniyati

Kelajak kasbida halollikning ahamiyati tushuntiriladi.

Metodlar: muhokama

32-MAVZU. Halollik va jamoa mas'uliyati

Jamoaviy faoliyatda halollik va mas'uliyat tushunchalari rivojlantiriladi.

Metodlar: guruhli ish

33-MAVZU. Ijtimoiy loyihalarni himoya qilish

O'quvchilar o'z loyihalarini taqdim etadilar va himoya qiladilar.

Metodlar: prezentatsiya, bahs

34-MAVZU. Yakuniy refleksiya va baholash

Dastur yakunida o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini tahlil qiladilar.

Metodlar: refleksiya, umumlashtirish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
– 80 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: 1994. Lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017
5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 160 b.
6. Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1983. – 280 b.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 224 b.
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 144 b.
9. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – 320 b.